

## BOSHLANG'ICH TA'LIM TA'LIM TIZIMINING POYDEVORIDIR

*Jonqulova Nasiba Karimovna*

*Qashqadaryo Dehqonobod 1- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Email: [nasibajonqulova@gamil.com](mailto:nasibajonqulova@gamil.com)*

**Annotatsiya:** Ta'lim davlat kelajagini belgilab beruvchi yo'ldir. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimining ahamiyati va bu tizimda isloh qilingan yangi o'zgarishlar haqida yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** Innavatsion texnologiyalar, interaktiv o'yinlar, immitatsion o'yinlar, operatsion o'yinlar.

**Kirish:** Buguni kunda ta'lim tizimiga yurtboshimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Zero "Ta'limga e'tibor kelajakka e'tibor"dir. Boshlang'ich ta'lim esa barcha bilimlar uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflar o'quvchi uchun ta'limni anglash, jamoaviy ishlash va fikrlash, dunyoqarashini o'stirishga xizmat qiladi.

**Asosiy qism:** Bugungi tezkor fan, texnika, texnologiyalar o'zgarayotgan davrda ta'lim islohotlariga katta e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ta'lim hamisha yangiliklar bilan hamnafas bo'lib yashasagina, ta'limda islohotlar yuzaga keladi, o'qituvchi salohiyati oshadi, o'quvchilar yangicha g'oyalarni yaratuvchisiga aylanadi. Bu esa o'z-o'zidan o'z ishiga ijodiy mas'uliyat bilan yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga jamiyatni yetaklaydi. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarur ekan, bu boshlang'ich sinf o'qituvchilarga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Zero, boshlang'ich ta'lim-ta'limning asosi poydevori hisonlanadi. Asos mustahkam bo'lmas ekan u uzoq turmay, qachondir qulab tushishi muqarrar. Boshlang'ich ta'limda o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchi tafakkurining mustaqil bo'lishiga,

o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligiga, standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligiga, o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilishiga erishishlari erishishlari lozim.[1] Bu o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirishga, bilim va ko'nikmalarini ossonlikcha egallashga turtki beradi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotni umumlashtirish, muammoli vaziyatlar yaratish, texnologik yondashuvlar va ta'limdagi innovatsiyalardan unumli foydalanish lozim. Boshlang'ich ta'lim ta'lim tizimining poydevoridir. Ta'lim tizimini yaxshilashda bugungi kunda bir necha interaktiv va imitatsion o'yinlardan foydalanish samaralidir. Bunday imitatsion o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini, nutqini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin. Senariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi. Operatsion (voqeyiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.[2] Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va ular bilan muloqot o'rnatishga o'rgatishdir. Psixodrama va sosiodrama. Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.[2] Ta'lim maqsadi ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda belgilangan ta'lim maqsadi har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi.

Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarining ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi. Raqobatbardoshlik boshlang'ich ta'limda pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo'lgan o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu unga bo'lgan talab yuqori bo'lishini ta'minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. [3]

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Ta'lim mamlakat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim esa manashu ta'lim tizimining poydevoridir. Boshlang'ich ta'limda shakllantirilgan o'quvchilar keyinchalik yuqori sinflarda umumiy bilimlarga va universitetlarda esa ma'lum bir sohalarga yo'naltiriladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-lim-ta-limning-asosiy-poydevori>
2. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12355-ta-limda-innovatsiyalar-didaktik-o-yin-texnologiyasi>
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/joomla/130-ta-lim-maqsadi-boshlang-ich-ta-limning-bosh-mezoni>